



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

6(8)
2023





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№6(8) 2023

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Muassislar: "Sadridin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Raximov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abdullayev Mehridin Junaydullayevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Klichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)

Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, professor

Toshtemirov Otabek Abidovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BLUM TAKSONOMIYASINING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida Blum taksonomiyasining amaliy ahamiyati, bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko'nikma va malakalar bilan uyg'unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o'rganish zarurati, mohiyati va metodikasi berilgan. O'quvchilar mustaqil ta'limi natijasida erishiladigan yutuqlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, mustaqil ish, mustaqil ta'lim, taksonomiya, kognetiv, affektiv, psixomotor, bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash, o'quvchi, metodika.

ПРАКТИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ ТАКСОНОМИИ БЛУМА НА НАЧАЛЬНЫХ ЗАНЯТИЯХ ПО ЧТЕНИЮ

Аннотация. В статье рассматривается практическое значение таксономии Блума на занятиях по читательской грамотности в начальной школе, необходимость, сущность и методика обучения новым самостоятельным видам деятельности и упражнениям в результате самостоятельного повторения полученных знаний в этой области, сочетания их с приобретенными навыками и компетенциями дано. Описаны достижения, достигнутые в результате самостоятельного обучения студентов.

Ключевые слова: начальный класс, самостоятельная работа, самостоятельное обучение, таксономия, познавательное, аффективное, психомоторное, знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка, ученик, методика.

THE PRACTICAL VALUE OF BLOOM'S TAXONOMY IN ELEMENTARY READING LITERACY CLASSES

Abstract. In the article, the practical importance of Bloom's taxonomy in primary school reading literacy classes, the necessity, essence and methodology of learning new independent activities and exercises as a result of independently repeating the knowledge gained in this area, combining them with acquired skills and competencies, are given. Achievements achieved as a result of independent education of students are described.

Key words: primary class, independent work, independent education, taxonomy, cognitive, affective, psychomotor, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, assessment, student, methodology.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan

30

Ta'limda o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassis amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan 1956-yilda ishlab chiqilgan Blum taksonomiyasi usuli o'qitishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Blum asos solgan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. Taksonomiya so'zi borliqdagi murakkab sohalarni ma'lum bir tizimda sistemalashtirish, joylashtirish nazariyasi hisoblanadi. O'quv jarayonidagi o'qitish taksonomiyasi esa o'quvchilarni oddiydan murakkabgacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtirib borish bosqichlaridan iborat. O'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarni o'sha ma'lumotlarni o'rganishi, tahlil qilishi, o'z bilimlarini mustaqil bayon qila olishlari, ma'lum bir vaziyatda munozaraga kirishishlari, o'zlarining dunyoqarashlarini va xulosalarini himoya qila olishlari hamda vaziyatni baholash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Bugungi globallashuv davri ta'lim-tarbiya tizimining barcha sohalarida ilg'or innovatsiyalarga asoslanish taqozo etilmoqdaki, o'qish darslarining milliy va xorij tajribalari integratsiyasi asosida tashkil etilishi zamonaviy o'qituvchi zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshirishi tabiiy hol. Bu borada pedagogika va psixologiya sohasida so'nggi yillarda e'tirof etilayotgan ilg'or nazariyalarning samarali jihatlarini milliy metodikaga tatbiq etish ehtiyoji tug'ilmogda.

Jamiyat va hayotda sodir bo'layotgan yangilanishlar ta'lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o'rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

Ma'lumki, xorijlik olimlar Dj.Dyuning konstruktivizm, J.Piajening bola intellektining rivojlanishi, G.Gardnerning intellekt ko'p turliligi, L.S.Vigotskiyning eng yaqin rivojlanish sohasi, V.Erxardning yorib o'tish texnologiyasi, shuningdek, V.F.Shatalovning o'quv materialining chizmalar va shartli belgilardan iborat modellari (tayanch signallar konspektlari) kabi bir qator nazariyalari ta'lim oluvchilar pluralistik tafakkurini rivojlantirishni nazarda tutadi. Xususan, ta'limda amerikalik psixolog va pedagog Benjamin Blum nomi bilan ma'lum bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlar taksonomiyalari o'quvchi faolligi va tashabbusini oshirish, mantiqiy fikrlash, analiz va sintez, muammolarga oid yechimlar bera olish kabi malaka va layoqatlarni rivojlantirishga qaratilgani bilan samaralidir. Ta'limga Blum taksonomiyasini tatbiq etish nazariyasi mamlakatimizda J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, H.Muslimov, M.Usmonboyeva, M.Mirsoliyeva, E.Abduvalitov, B.To'xliyev, I.Rajabova kabi pedagog va metodist olimlar tomonidan o'rganilgan.

Taksonomiya (yunoncha "taxis" – tartib bilan joylashish, "nomos" – qonun) butun borliqning murakkab, odatda, ierarxik tuzilmali sohalarini (jonli tabiat, yerning tuzilishi; geografiya, geologiya, tilshunoslik, etnografiya va shu kabi obyektlar) tasniflash va tartibga solish nazariyasi, shu haqidagi fan.

Pedagogik taksonomiya – o'quv maqsadlarining toifalari va darajalari ketma-ketligi aniq belgilangan tizim.

Chikago universiteti professori Benjamin Blum tomonidan bilim olish sohasidagi o'quv maqsadlari taksonomiyasining yaratilishi diqqatga sazovordir.

Blum taksonomiyasi o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat). O'quvchilarning kompetentligini oshirishda har bir soha bo'yicha mustaqil ta'lim jarayonidagi holati haqida to'xtalib o'tamiz.

1. **Kognitiv soha.** Bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko'nikma va malakalar bilan uyg'unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat

yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o'rganish zaruratiga tegishli o'quv maqsadlari kiritiladi.

2. **Affektiv soha.** Mustaqil ish bajarish jarayonida qiziqish va moyilliklarni shakllantirish, ichki hamda tashqi psixologik ta'sirlar natijasida bilim olish munosabatni shakllantirish, uni mustaqil faoliyat davomida tushunib yetish orqali faoliyat amaliyotiga tatbiq qilish maqsadlari kiritiladi.

3. **Psixomotorli soha.** Bunga mustaqil ish bajarish jarayonidagi psixologik faoliyat, jarayonlarda jismoniy faoliyat natijasida, asab muskullarini markazlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq maqsadlar kiritiladi. Mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi bevosita B. Blumning bilim olish sohasidagi o'quv maqsadlari taksonomiyasi asosida quyidagi **olti** toifadagi asosiy o'quv maqsadlaridan iborat holda qarab chiqildi:

| Bilish | Tushunish | Qo'llash | Tahlil | Sintez | Baholash |
|--------|-----------|----------|--------|--------|----------|
|--------|-----------|----------|--------|--------|----------|

Ushbu vazifalarni bajarishda o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirish muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Chunki boshlang'ich sinfda o'quvchilarning o'qish savodxonligini shakllantirmasdan ta'lim samaradorligiga erishib bo'lmaydi. O'qish savodxonligi - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyatidir. O'qish darslarida badiiy asarlarni o'rganishga doir ijodiy xarakterdagi o'quv topshiriqlari o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish va bilish jarayonlarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. O'quv maqsadlarning ushbu olti asosiy kategoriyalarini obyektlarni qo'llashda, mustaqil ta'lim jarayonidagi ko'rinishlarini ochib berishga harakat qildik.

1. Obyektlar haqidagi bilimlarni mustaqil bilish - ushbu kategoriya o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonida egallangan ma'lumotlarni xotirada saqlab qolish, mustaqil tafakkurlash natijasida qayta esga tushirish, ijodiy erkin fikrlash, mustaqillik xususiyatlarini namoyon etish kabi o'quv maqsadlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi

2. Obyektlarning amaliyotga joriy etilishini tushunish - mustaqil ta'lim olish turlarining bir turdan ikkinchisiga o'zgarishi, o'quvchilarning mustaqil ishlarni tushuntirishi, natijalariga ta'sir qiluvchi takliflar kiritish, vaziyatlarning o'zgarishini nazarda tutadi

3. Obyektlarni amaliyotda qo'llash - mustaqil ta'lim jarayonida amaliy faoliyat bilan shug'ullanish, obyektlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Ushbu faoliyat obyektlarni qo'llash qoidalari, usullari, shakllari nazariyalari sinab ko'riladi

4. Obyektlarning tahlili -dars jarayon hamda obyektlar unsurlarini tahlil etib ular orasidagi munosabatni o'rganish. Mustaqil ta'limni tashkil etish asoslarini bilish. Mustaqil ta'lim natijalari, tushunish va qo'llashga qaraganda, yuqori intellektual darajali tavsiflanganligi sababli mustaqil bilim olish mazmunini hamda uning tarkibiy tuzilmasini bilishni talab qiladi

5. Dars jarayoni va obyektlarning sintezi - mustaqil ta'lim natijalari talaba o'quv faoliyatida mustaqillikka erishishni, ijodiy xususiyatga ega bo'lishini, mustaqil ta'lim olishning adekvat usullarini, shakllarini ko'rinishlarini va tizimlarini vujudga keltirishni nazarda tutadi

6. Obyektlarni mustaqil ta'lim jarayonida baholash - o'quvchilar tomonidan mustaqil ta'lim olish jarayonida egallangan bilimlar, metodlarni qabul qilingan maqsadni hisobga olgan holda baholash

Fikrimizcha, o'qish darslarida Blum taksonomiyasidan foydalanish o'quvchilarda quyidagi nazariy tushuncha va bilimlarni tasniflash hamda tizimlashtirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir: – badiiy adabiyot mavzusi va maqsadi o'rtasida mavjud aloqadorlik, adabiyot va san'atga xos obrazlilik; – muayyan sinf, qatlam va ijtimoiy yo'nalishlarning o'ziga xos belgilarini o'zida mujassam etgan shaxslar tipi;

– badiiy obrazning tarixan shakllangan eng muhim xususiyatlari;

32

- o‘qishning kishilarga hissiy ta’sirining aniq va takrorlanmas, umumiy tipik belgilari;
- badiiy obrazdagi umumiylik va xususiylik masalasi;
- asar kompozitsiyasi, tur va janr xususiyatlari;
- badiiy asarning yaxlitligi, unda har bir detal muayyan g‘oyaviy-badiiy maqsadga bo‘ysundirilgani;
- tanlangan chizgilar, hodisalar va xarakterlarning mohiyati;
- hayot manzarasini ochishga xizmat qilishi;
- haqiqatning obrazlar olamida yuzaga chiqishi;
- tipiklik muammosining mohiyati;
- obrazlar hosil qilishda muhim vosita bo‘lgan asar tili;
- hayot oqimining qamrab olinishi: xarakter, ziddiyatlar, to‘qnashuvlar, tuyg‘ular oqimi va hokazo.

Xulosa. O‘quvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda B.Blum taksonomiyasi asosda yondashuv ularning xayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omillardan ekanligi asoslandi. Blum taksonomiyasi asosida o‘quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oluvchi quyidagi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat)li omillar mustaqil ta’lim olish jarayoni samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF-5538-son Farmoni.

3. Проектирование результатов обучения с использованием модифицированной таксономии Блума // Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. 2015. №46.

4. Khusenova, A. (2022). THE PROCESS OF INTEGRATING THE ACTIVITIES OF THE TEACHER IN THE DESIGN OF MOTHER TONGUE EDUCATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 216-227.

5. Sharipovna, K. A. (2021). The Role of Learning Activities in the Design of Teacher Activities in the Integration of Primary School Mother Tongue Lessons. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(10), 111-114.

**Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
"PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA"
xalqaro ilmiy-metodik jurnali
barcha ta'lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.**

**"PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnalida o'zbek, rus, ingliz
tillarida maqolalar chop etiladi.**

**Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti**

Tahririyat rekvizitlari:

«Садриддин Салим Бухорий» МЧЖ

Манзил: Бухоро, Муҳаммад Иқбола кўчаси, 11

Р/с 20208000104858465002

Бухоро шаҳри Ҳамкорбанк МФО 00966

ИНН 301637939 ОКНХ 87100

| | | |
|--|--|--|
| <p>PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA</p> <p>Xalqaro ilmiy-metodik jurnal</p> <p>2023-yil 6-son (8)</p> <p>2022-yil avgust oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>Нашр индекси: 1397</p> | <p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, kasb-hunar maktablari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas'ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.</p> | <p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 20.12.2023 Bosmaxonaga topshirish vaqti 26.12.2023 Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 28,5 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 733 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.</p> |
|--|--|--|